


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## **ANALYSIS OF THE GRAMMATICAL FUNCTIONS OF THE ORDINAL NUMBERS IN THE SENTENCE IN PASHTU**

**Zafar Normatov**

*Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

**Isfandiyor Abdurakhmonov**

*Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** ordinal number, the presence of ordinal numbers in possessive, participle, determinative, complement and case functions

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** We can say that the numerals in Pashto represents one of the grammatical indicators that have not yet been fully formed. For this reason, some Pashto linguists have added it to the adjective category. In the literature on Pashto grammar, the spelling and even pronunciation of numerals differ markedly. Although it is true that this phenomenon is formed under the direct influence of existing dialects of the language, it requires a full scientific and research justification, a search for answers to many open questions within the framework of this topic. In this article, some issues related to the function of ordinal numbers in Pashto language will be taken under analyze.

## **PASHTU TILIDA TARTIB SONNING GAPDAGI GRAMMATIK VAZIFALARI TAHLILI**

**Zafar Normatov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

**Isfandiyor Abdurahmonov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** tartib son, tartib sonlarning ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelishi.

**Annotatsiya:** Pashtu tilida son so'z turkumi hali to'liq shakllanib ulgurmagan grammatik ko'rsatkichlardan biri deyish

mumkin. Shu sababli ham ba'zi pashtu tilshunoslari uni sifat so'z turkumiga qo'shgan holda keltirishgan. Pashtu tili grammatikasiga oid adabiyotlarda sonlarning imlosi va hattoki talaffuzlarining ham tubdan farq qilishi kuzatiladi. To'g'ri bu hodisa tildagi mavjud lahjalarning bevosita ta'siri ostida yuzaga kelgan degan qarashni shakllantirsada, ammo uni to'liq ilmiy asoslantirish hamda tadqiq etish, ushbu mavzu doirasidagi ko'plab ochiq qolayotgan savollarga javbo izlash talab etiladi. Mazkur maqolada pashtu tilidagi tartib sonlarning gapdagi vazifalariga oid ba'zi masalalar tahlil ostiga olinadi.

## АНАЛИЗ ГРАММАТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ ПОРЯДКОВОГО ЧИСЛИТЕЛЬНОГО В ПРЕДЛОЖЕНИИ НА ПАШТУ

**Зафар Норматов**

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

**Исфандиёр Абдурахмонов**

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** порядковое числительное, наличие порядковых числительных в притяжательной, причастной, определительной, дополнительной и падежной функциях.

**Аннотация:** Можно сказать, что числительные в пушту представляют собой один из еще не до конца сформировавшихся грамматических показателей. По этой причине некоторые лингвисты-пушту добавили его в категорию прилагательных. В литературе по грамматике пушту написание и даже произношение числительных заметно различаются. Хотя правда, что данное явление формируется под непосредственным влиянием существующих диалектов языка, оно требует полного научного и исследовательского обоснования, поиска ответов на многие открытые вопросы в рамках данной темы. В данной статье анализируются некоторые вопросы, связанные с функцией порядковых чисел в языке пашту.

### KIRISH

Gap grammatic shakllangan, intonatsion tugallikka ega bo'lgan, nisbiy tugal fikr bildirgan so'zlar qo'shilmasidan tashkil topadi. Gapda so'zlar bir-biri bilan teng yoki tobe aloqaga kirishishi

mumkin. Gapni grammatik vazifalarga ajratishda tobe aloqaga kirishish asosiy mezon hisoblanadi. Gapda so‘zlar bir-birlari bilan sintaktik aloqaga kirishgandagina biror bir gap bo‘lagi vazifadida kela oladi. Grammatik (sintaktik) aloqa gap bo‘laklarining asosiy belgisi, muhim xususiyatidir.

So‘zlar grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, gap bo‘laklari asosan so‘roq berish orqali belgilanadi. Gap bo‘laklari tobe bog‘lanib kelgan so‘zlarga nisbat berilib topiladi, grammatik bog‘lanish so‘zlarni gap bo‘laklariga ajratishning asosiy mezonidir. So‘zlar bir-birlariga ohang va ko‘makchilar orqali bog‘lanadi.

### ASOSIY QISM

Gap bo‘laklari, gap qurilishidagi vazifasiga ko‘ra ikki tipga, bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘linadi. Gap uchun zarur bo‘lgan predikatsiya asosan bosh bo‘laklar orqali ifodalanadi. Gapning bosh bo‘laklari ega va kesim hisoblanadi. Ega va kesim o‘zaro grammatik bog‘langan bo‘ladi. Ega odatda kesim orqali kesim esa ega orqali belgilanadi. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklani aniqlab, ularning ma’nosini aniqlashtirib, fikrni to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Ikkinci darajali bo‘laklari gapdagi funksiyasiga ko‘ra, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holga bo‘linadi.

Gap bo‘laklari strukturasiga ikki xil bo‘ladi: oddiy bo‘laklar va murakkab bo‘laklar. Oddiy bo‘laklar yakka so‘z bilan ifodalanadi. Bunda juft va qo‘shma so‘zlar bir bo‘lak sifatida qaralsa, murakkab bo‘laklar bir-biri bog‘langan ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalanadi.

Tarib sonlar gapda grammatik vazifalarni ham bajara oladi. U gapda deyarli hamma grammatik vazifada keladi. Lekin u sifat so‘z turkumiga morfologik jihatdan yaqinligi sababli asosan aniqlovchi vazifasida keladi. Boshqa grammatik vazifalarni bajarish uchun tartib son o‘zi ergashib kelayotgan so‘z bilan birikma hosil qilib murakkab bo‘lak bo‘lib keladi. Ba’zan tartib sonlarning o‘zi ham u ergashib kelgan so‘z tushirib qoldirilganda otlashib to‘ldiruvchi, ega, hol, kesim vazifada keladi.

Pashtu tilida ham sonlarning ayniqsa tartib sonlarning grammatik vazifalari tahlili aniq va mukammal tadqiqot ob‘ekti sifatida to‘liq o‘rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida pashtu tilida jins va son kategoriyasining mavjudligi, gapdagi ishtirotiga ko‘ra, tartib sonlarning morfoligik o‘zgarishlarga olib keladi. Bu masala bir qator pashtushunos olimlarning ishlarida asosan so‘z turkumlari doirasida tahlil qilingan bo‘lsada, umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lmay qolmoqda, Mazkur maqolada biz aynan pashtu tilidagi tartib sonlarning gapdagi grammatik vazifalarini gapdagi gap bo‘laklari vazifasiga ko‘ra tahlil qilamiz.

**Tartib sonlarning ega vazifasida kelishi.** Ega gapning bosh bo‘lagi hisoblanadi. Gapda hamma gap bo‘laklariga nisbatan hokim bo‘lak bo‘lib keladi. U gapda nazarda tutilganini, fikrda nima bayon qilinganini bildiruvchi bosh bo‘lak hisoblanadi.

Tartib sonning o‘zi gapda ega bo‘lib kelishi juda ham kam kuzatiladi. Tarib sonlar ergashib kelgan so‘z tushib qolib, u otlashgan holdagina ega bo‘lib kela oladi. Ko‘p hollarda so‘zlar bilan birikib murakkab egani hosil qiladi. Murakkab bo‘lak takibida bo‘lganida doim bog‘langan so‘zga qara turlanadi. Pashtu tilida grammatic ega doim bosh kelishik shaklida bo‘ladi.

اول شغال نаре کрё: را ووҳи، خطر نهште، انسانان وиде شول.

دوييم شغال ور غو کрل: خدای مو دی له دی مردارخورو وساتي.

**'Birinchi shaqol** baqirdi: Chiqilar, xavf yo 'q, insonlar uxladi.

**Ikkinci shaqol** unga aytdi: Xudo bizni saqlasim'.

Yuqoridagi misolda 'birinchi shaqol' birikmasi ega hisoblanadi, 'birinchi' so‘zi shu murakkab ega tarkibida birikib kelgan, u birikgan so‘z muzakkarr bo‘lgani uchun ham birinchi so‘zining muzakkarr birlik shakli olingan. Kesim egaga bog‘angani uchun kesimning ham muzakkarr birlik shakli qo‘llanilgan.

وخت бене او بد تېرول زموږ په لاس کي دي، غوره دا ده چي د اروايي روغтия لپاره وخت бене تېر کرو. تаси به واپаст، چي پردي دومره سтонзо سرбэр ھixinگهинه ژوند تېرولاي شو، ما دوه ملکري لрل، چېبوه ھرڅه لرل، خو خوبن نه و، بل يې هېڅ نه لرل، خو بیا هم خوبن و. لومرنې پوه او شتمن و، دوييم يې په خوارى سره دودی پیدا کوله، خو پوهه يې نه لرله.

*'Vaqtni yaxshi va yomon o 'tkazish o 'zimizning qo 'limizda, ruhiy salomatlik uchun yaxshi vaqt o 'tkazish muhimdir. Siz shuncha muammolarga qaramay, qanday qilibvaqt xush o 'tkazish mumkin dersiz, mening ikkita do 'stim bor, ulardan biridahamma narsa bor, ammo baxtli emas, boshqasining esa hech narsasi yo 'q, lekin baxtli edi. Birinchisi bilimli va badavlat edi, ikkinchisizo 'rg 'a non topar, bilimsiz edi'.*

Bu misolimizda ko‘rishimiz mumkinki, agar biror narsa haqida avval gapirilsa, keyingi safar kelganida tartib sonlardan keyin u so‘zni tushirib qoldirishimiz mumkin. Bunda tartib sonlar otlashadi va ega vazifasida keladi.

**Tartib sonlarning gapda aniqlovchi vazifasida kelishi.** Aniqlovchi gapning ikkinchi darajali bo‘lagi hisoblanadi va aniqlovchi hammaga gap bo‘laklari bilan bog‘lanib, ularni aniqlab kela oladi. Aniqlovchi aniqlab kelgan so‘z aniqlanmish deyiladi.

Pashtu tilida tartib sonlar o‘zlarining morfologik xususiyatlariga ko‘ra sifatga yaqin hisoblanadi. Gapdagagi grammatic vazifasiga ko‘ra ham tartib sonlar sifatga o‘xshab gapda asosan aniqlovchi bo‘lib keladi. Tartib sonlar aniqlanmishning tartib jihatidan belgisini bildirib keladi va u aniqlab kelayotgan gap bo‘lagi bilan jins va kelishiklarda turlanishi bir xil shaklda bo‘ladi. Tartib son gaplarda ham oddiy, ham murakkab aniqlovchi bo‘lib kela oladi.

د ۱۳۸۲ کال د اساسی قانون له مخي، ملي شура يا پارلمان له دوو جرگیو (ولسي جرگه او مشرانو جرگه) خخه جوره

.۵

‘1386-yilgi konsitututsiyaga ko‘ra “Milliy Sho‘ro” yoki Parlament ikki jirg‘adan (Xalqkengashi va Oqsoqollarkengashi) tuzilgandir’.

Yuqoridagi misolda aytib o‘tganimizdek tarib sonlar birikma hosil qilib murakkab aniqlovchi sifatida kelgan.

دди اساسи قانون د ۱۵۹ د څورم بندد حکم په رعایت، دولت اجرایی او قضایي اړګانونه د حکومت او ستري محکمي تر جوريدي پوري څلوا دندو ته ادامه ورکوي.

*‘Bu konsitututsyaning **bir yuz ellik to‘qqizinchı** moddasining **to‘rtinchi** bandidagi hukmiga ko‘ra, davlatning ijroiya va sud idoralari hukumat hamda oliv mahkama tashkil etilguncha o‘z ishini ettirib turadi’.*

Bu misolimizda tartib son ikki o‘rinda ishlatilganiga e’tibor qaratish kerak. Birinchi o‘rinda raqam shaklida berilgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda so‘zlar bilan berilgan va ikki o‘rinda ham aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan. Birinchi o‘rinda raqamda berilgan undan keyingi so‘z tushirib qoldirib, sonning o‘zi aniqlovchi bo‘lib ifodalangan.

**Tartib sonlarning hol vazifasida kelishi tahlili.** Hol ish-harakatning belgi-sifatini, uning bajarilish uslubini, shu bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin, payt, sabab, maqsas, shart-sharoit, miqdor-daraja kabi xususiyatlarini ko‘rsatadi. Hol odatda kesimga bog‘lanib keladi.

Tartib sonlar gapda ish-harakatning tartibini bildirib miqdor-daraja holi bo‘lib keladi.  
د تولو ولايتونو اريکي د ولايتونو پر بنست د الف بي تورو له مخي ترتيب شوي دي. د کابل ولايت تر تولولومري  
راغلى دي او بىا نور ولايتونه د تورو له مخي تنظيم شوي دي.

*‘Hamma viloyatlarning o‘zaro aloqalari viloyat bo‘yicha alisbo asosida tartibga solingan. Kobul **birinchi** keladi va keyin boshqa viloyatlar shakllantirilga’.*

Ushbu misolimizda tartib son poytaxt Kobulning hammasidan oldin turishini bildirib kelmoqda.

Tartib sonlar ish-harakatning tartibini bildirganda **څل**[dzal]-‘marta’ hisob so‘zi bilan ko‘p hollarda birikib kelishini uchratish mumkin.

نوي ملي شورا د **لومړي څل** لپار هد ۱۳۸۴ کال د ليندي په مياشت کي د همدي کال د ورپد مياشتی له پارلماني تاکنوڅخه  
وروسته يې غونډه وکړه.

‘Yangi “Milliy sho‘ro” **birinchi marta** 1384-yilning lindsay oyida joriy yilning vəjay oyidagi saylovdan so‘ng yig‘ilish o‘tkazdi’.

Tartib sonlar vaqt o‘lchov birligini bildiradigan hisob so‘zlar [kāl]-‘yil’, [neṭa]-‘sana’, [perey]-‘asr’, [sahār]-‘ertalab’, [šəpa]-‘tun’ bilan birgalikda payt holi vazifasida keladi.

په **۱۳۸۶ کال** کي بسپنه ورکونکو او افغان حکومت د افغانستانپولیسود سمون لپاره د نريواليپولاني د هڅو د یوالی او همدارنګه له دي سمون څخه د افغانانو د برخمنتیاد لورولو په موخه يې د پولیسود لورولو په موخه يې د پولیسود د همغږي نريوال پلاویجور کړ.

'1386-yil donorlar va afg'on hukumati Afg'oniston politsiyasini isloh etish uchun xalqaro jamiyatning harakati bilan Afg'oniston taraqqiyotinioshirish va politsiyasini rivojlantirish maqsadida xalqaro missiya tuzildi'.

Bu misolimizda tartib son 'yil'so'zi bilan birikkan holda murakkab hol vazifasida kelgan. Tarib son raqam ko'rinishida berilgani uchun uning suffiksi tushib qolgan, ammo biz talaffuzda albatta uni qo'yib talaffuz qilamiz va mos ravishda turlangan shaklini ishlatalamiz.

د ۱۳۸۵-۱۳۸۱ راهиси мадни толни مجتمع д бнд тирон ле пли куло срех یي مرсте кри, д асасиқанон д жорони بېير په اړه هی روزنیز، رسنیز او مدافوی فعالیتونه په لاره اچولي دي، او همدا رازد ۱۳۸۴ کال په ولسمشريز هتولتакنو او ۱۳۸۴ کال په پارلماني تاکنو کي د مدنی زده کري او د نومليکني کمپایونههبي په لاره اچولي دي.

'1381-1385-yillardan beri fuqorolik jamiyati yig'ilishi Bon shartnomasini tuzishga yordam bergen, u konsititutsiyani tuzish jarayoni bilan bog'liq o'qitish, axborot va qo'riqlash shuningdek, 1383-yilgibarcha prezidentlik hamda 1383-yilgi parlament saylovlaridagi fuqarolarni o'qitish va ro'yxatdan o'tkazish kompaniyalarini boshlagandi'.

Bu misolimizda hol vazifasida tartib sonning o'zi kelgan. Chunki u bilan birga murakkab hol vasifasida kelgan so'z tushib qolgan. Undan keyingi so'z tushib qolgan bo'lsa ham tartib son qo'shimchasi qo'shilgan holda talaffuz qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, tartib son ergashib kelgan son tushib qolganda ham hol vazifasida kela oladi. So'z tushib qolsa ham uning o'rni gapda bilinib turadi, ya'ni tartib sonlar tushib qolgan so'z jins kategoriyasini saqlab qoladi va shunga monand kelishiklarda turlanadi.

**Tartib sonlarning to'ldiruvchivazifasida kelishi.** To'ldiruvchi ikkinchi darajali bo'lak hisoblanadi. To'ldiruvchi ish-harakatga yo'nalgan, umuman harakatga biror yo'l bilan bog'langan predmetni bildiradi.

Tartib sonlar asosan murakkab bo'lak tarkibida kelib to'ldiruvchi vazifasida keladi.  
په همدي کي هغه سري له جېبې لاس راوکيښ او بیا د ورہ په تېلو بوخت شو، هغه دریم ور هم بنداوه، لاندی سمندر

.و

'Xuddi shu tarzda u kishi qo'lini cho'ntagidan chiqardi va keyin eshikni yopish bilan ovora bo'ldi, uchinchchi eshikni ham yopdi, pastdaesa kaltakesakturar edi'.

Bu gapda tartib son 'uchinchchi' eshik 'ور' 'دریم' 'و' bilan birikib murakkab to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Bu birikma ega bilan bil xil grammatik shaklga egaligi bilan ajralib turadi. Ba'zan biz uni shakl jihatidan ega bilan adashtirshish mumkin. Bunday vaziyatda gapni tarjimasidan va maznunidan kelib chiqib aniqlash kerak. Pashtu tilida vositasiz to'ldiruvchi qo'shimchasi belgili belgilik, ya'ni -ni qo'shimchasi yo'qligi sababli, bu muammo kelib chiqadi. Buni tarjima va kesimga yaqin joylashishi orqali bilishmumkin.

عبدالرحيم په خبره کي ور ولوبد: -په دويم واده به دې د کور عزت خوندي وي. سپينه مامد دينه به درته وکم، زما خو درېبېمي ته هم نېټ دې.

*'Abdulrahim aytadi: - Ikkinchı turmushda uying sharafini saqladi. Keksa Mo'mad dinni senga berdi, mening uchinchiga ham niyatim bor'.*

Bu misolimizda tartib son birikkan so'z tushib qolgan va tartib son otlashib to'ldituvchi vazifasida kelgan. (uchinchi) so'zi birlik muannas vositali kelishikda turibdi. Bundan kelib chiqadiki tushib qolgan so'z muannas birlikda so'zdir. Jumlaning dastlabgi qismidagi ma'noda kelib chiqib bu yerda (turmush) tushib qolganini bilishimiz mumkin. Bu misoldan kelib chiqadiki tartib son ergashib kelgan so'z tushib qolsa ham o'rni bilinib turadi. Ya'ni tartib sonlar u so'zning jins kategoriyasida qolaveradi. Eng asosiysi so'z tushganda ham vositali kelishikda kela oladi.

**Tartib sonlarning kesim vazifasida kelishi.** Kesim gapning asosiy qismidir. Boshqa bo'laklar ishtirok etmasligi mumkin, ammo kesim hamma gapda bo'ladi. Kesim gapda ega bog'lanib keladi. Gapda biz egani kesim orqali aniqliymiz. Kesim eganing jins kategoriyasi va sonini ko'rsatib keladi.

Kesimifodalanishiga kelishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: fe'l kesim va ot kesim. Kesim fe'l so'z turkumi bilan ifodalansa fe'l kesim bo'ladi. Qolgan so'z turkumlari sifat, son, ot, ravish bilan ifodalansa ot kesim bo'ladi. Tartib sonlar birikma shaklida ot kesim bo'lib keladi.

د رېيىگل پلار ھم په وروستي نظر و. ھكە خو يې خپل زوى تە پە خوارلس كلنی کي واده وکر. د یوی اونى رختى

وروسته ، نن لومرى ورخ و چى رېيىگلىتۇونھى تە راغلى و.

*'Riday Gulning dadasi ham qaradi. Chunki u o'g'lini o'n to 'rt yoshida uylantirgan. Bir haftalik ta'tildan so'ng Riday Gulning mакtabga kelishining birinchi kuni edi'.*

Bu misolimizda tartib sonbirikma shaklida kesim vazifasida kelgan. (birinchi kun) birikmasi murakkab kesim vazifasida kelgan. Bu birikmani kesim sifatida shaklantirgan bog'lama birmaga mos shaklda muannas birlik shaklda bo'ladi. Kesim shaklida kelgan birikmaga mos bog'lama ishlatiladi.

باتور د كوكولىي دويم زوى دى.

*'Batur Ko 'kuglayning ikkinci o'g'lidir'.*

Bu misolda ham tartib son murakkab kesim tarkibida kelgan. Demakki tartib son birikma takibida kesim bo'lib kela oladi.

Tartib sonlar gapda kirish so'z vazifasida ham ekladi. Kirish so'z bo'lganda fikrning tartibini, ketma-ketligini ifodalab keladi.

تر ننه كە ھەم چى د ولسوالىو د شوراگانوتاڭى تر سره شوي نە دى. ددى كار لپارە يو لى لامونە موجود دى.

لومرى، پە خىنو سيمو كى دولسوالىو پولى ثابتى نە دى نو له دى املە د ولسوالىو د وگرو شميرل اوپە دى ھكە قضاوت چى د ي ولسوالىو تە خۇخۇكىخانگىرى شي شۇنى نە دى. چى دغە ستونزە د ھيواد د یوی نوي سرشمیرىنى د نە شتون له كېلە نورە ھەم بېچلى كىرىي. دوھم، دولسوالىو د پولو د نا خىركندوالى له كېلە درايە ورکونكۇ نوم لېكىنى د ولسوالى له لارى نە تر سره كىرىي. نو د ولسوالىو د شوراگانو د تاڭنۇلپارە د نوم لېكىنىبۇ بل بېھىر تە ارتىا دە.

*'Shu kungacha tuman kengashlari saylovi bo'lib o'tmadi. Buning bir qancha sabablari mavjud. **Birinchidan**, ayrim hududlar chegaralari aniqlanmagan, shuning uchun tuman aholi sonini hisoblash va ushbu tumanlarga qancha o'rinni ajratishni aniqlashning iloji yo'q. Mamlakatda ro'yxatga olishning yo'qligi bu muammoni yanada murakkablashtiradi. **Ikkinchidan**, tumanlarning chegarasi yo'qligi sababli saylovchilarni ro'yxatga olish tuman orqali olib borilmaydi. Tuman kengashlari saylovi uchun boshqa bir jarayon zarur'.*

Yuqoridagimisolda ko'rishmiz mumkinki tartib son kirish so'z bo'lib kelganda muzakkarr birlik bosh kelishik shaklida qo'llanadi va kirish so'zdan so'ng vergul bilan ajratiladi.

د خپل معرفت د شپراوي لپاره بайд له دغو دري لارو خخه پوه ترلاسه کرو:

**لومбри:** بайд له خپلو ادبиято، فлсфи، هэн، دин، تарих او خپло ملي кисо ҳхебр اطلاعат Трлаسه کро.

**дөвім:** д шаурано او Ликоало пе ҳбэр байд ҳаноне д нуро өр ҳай ахсас кро او ھر حالت درك کро.

**дребім:** بайд د ھرى ورئى په تېرپدو سره د خپل مسلک په رموزونو او باریکيو باندھانонھене ترا پوه کро.

*'Bilimlarimizni to'ldirish uchun uch usulda bilimga ega bo'lishimiz kerak. **Birinchidan**, biz har kuni o'z adabiyotimiz, falsafamiz, san'atimiz, dinimiz, tariximizva milliy hikoyalarimizdan ko'proq o'rganishimiz kerak. **Ikkinchidan**, shoir va yozuvchilar singari biz ham o'zimizni boshqalar o'rnila his qilishimiz va har qanday vaziyatni anglashimiz kerak. **Uchinchidan**, kundan kunga biz o'z kasbimizning nozik tomonlarini yaxshiroq anglashimiz kerak'.*

Bu misolimizni birinchisidan birligina farqi bor, bu ham bo'lsa tinish belgisidadir. Demak kirish so'zdan so'ng ikki nuqta ham qo'yish mumkin.

Pashtu tilida tilida tartib sonlar suffiks yordamida yasaladi. Tartib son yasovchi suffikslar murakkab sonlarning oxirgi komponentiga qo'shiladi. Tartib sonlar raqamlar orqali ifodalansa ham suffiks yoziladi, ba'zan esa tushirib qoldirilgan holatlarini ham uchratish mumkin. Tartib son yasovchi suffiks qo'shilganda ba'zi imlo o'zgarishlari kuzatiladi.

Tartib sonlar o'zi birikib kelgan so'z jins, kelishiklarga moslashadi va sifatlarning uch ko'rinishli shaklidek turlanadi. Tartib sonlar gapda asosan aniqlovchi bo'lib keladi. Boshqa bo'laklar vazifasida asosan birikma shaklida keladi. Ba'zan tartib son birikib kelgan so'zlar tushib qolishi natijasida u otlashib keladi va gapda ega, то'ldiruvchi, hol bo'lib keladi.

## XULOSA

Xulosa ornida shuni ta'kidlash mumkin, Pashtu tilida tartib sonlar ham sifatlar singari otlarning jins kategoriyasini qabul qiladi va kelishiklarda sifat kabi turlanadi. Tartib sonlar asosan uch ko'rinishga ega sifatlar kabi turlanishga egaligini kuzatishimiz mumkin. Tartib sonlar sifat singari gaplarda asosan predmetlarni aniqlab kelib, aniqlavchi vazifasida keladi. Tartib sonlar murakkab birikma shaklida ham aniqlovchi vazifasini bajarib kelishi mumkin.

Tartib sonlar ega vazifasida asosan murakkab birikma shaklida keladi. Ba'zan u birikkan so'zning tushib qolishi natijasida otlashib ega vazifasini bajarib keladi, ammo bu holat juda ham

kam uchratiladi. Tartib sonlar murakkab ega bo‘lganda uning tarkibidagi so‘z tushib qolganda ham uning o‘mi bilinib turadi, tartib sonlar ularning jins kategoriyasini saqlab qoladi. To‘ldiruvchi vazifasida ham asosan murakkab birikma shaklida keladi. Tartib sonlar چال [jal] marta hisob so‘zi bilan birikib ish-harakatning tartibini, ketma-ketligini bildirgan holda murakkab hol vazifasida ham kelish mumkin. Bundan tashqari tartib sonlar vaqt o‘lchov birligini bildiradigan hisob so‘zlar کال [kāl] yil، نېټا [neṭa] sana، پېرى [perey] asr، سهار [sahār] ertalab، شېپه [šəpa] tun bilan birgalikda payt holi vazifasida keladi. Ba’zan vaqt o‘lchov birligini bildirgan hisob so‘zlar tushib qolib tartib sonlarning o‘zi ham hol vazifasida keladi. Asosan tartib sonlar predloglar bilan kelib hol vazifasini bajaradi. Tartib sonlar murakkab shalkda kesim vazifasida keladi. Tartib sonlar kesim vazifasi kelganda ega bilan moslashadi va egaga mos kesimlik shaklini, bog‘lamani qabul qiladi. Tartib sonlar asosan murakkab birikma shaklida gap bo‘laklari vazifasida keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тили грамматикаси(Морфология)-Тошкент, 1975.
2. Ўзбек тили грамматикаси(Синтаксис)-Тошкент, 1976.
3. Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.
4. Inomxojayev Rahmonxoja. Pashto tili grammatikasi (fonetika va morfologiya). - Toshkent, 2020.
5. Калинина З.М. Очерки лексикологии современного пушту. - М., 1972.
6. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- М., 1956.
7. Грюнберг А.Л.Очеркграмматикиафганскогоязыка (пашто). -Ленинград, 1987.
8. Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.-М., 2003.
9. Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебникязыкапушту. - М., 2001.
10. Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-М., 1985.
11. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001.
12. Anne Boyle Devid. Descriptive grammar of Pashto and its dialect. - Germany, 2014.
13. Habibullah Tegay,Barbara Robsin. A Reference Grammar of Pashto. - Washington,1996.
14. Zeeya A. Pashtoon.Pashto - English dictionary. - Maryland, 2009.
15. صدیق الله ربنتین. پښتو گرامر. پیښور. ۱۹۹۴م
16. صدیق الله ربنتین. پښتو گرامر(ژب بنونه). پیښور. ۱۳۸۲ل
17. محقق سید محبی الدین هاشمی. د پښتو ژبی لند گزامر(صرف- نحوه). کابل. ۲۰۰۴.
18. خیال بخاری. د پښتو صرف و نحو. پیساور بنار. یونیورسٹی بک الجسی